

*Sultanov Yusupbek Fayzullaevich
Oraqbaeva Biybinaz Yusupovna
Bekturdieva Shofiya Otabek qizi*

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

QORAQALPOG'ISTON SHAROITIDA DUMBALI QO'YLARNING UNIMDORLIK XUSUSIYATI

Annotatsiya: Chorvachilik O'zbekistonning yetakchi sohalaridan biri hisoblanadi. Qoraqalpog'istonda unumdor qo'ylar turini yetishtirish qishloq xo'jaligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi maqolamizda dumbali qo'ylarni yetishtirishda qoraqalpog'iston sharoiti va dumbali qo'ylarning unumdorligini oshirish haqida malumot beriladi.


Kalit so'zlar: Qo'ychilik, jun, yaylov, cho' va chala cho'l, iqtisodiy samara, Orol, yantoq, degradatsiya, nasildorlik

Qo'ychilik – chorvachilikning qo'ylarni urchitish bilan shug'ullanadigan tarmog'i. Oziq-ovqat mahsulotlari (go'sht, yog', sut) va yengil sanoatga qimmatli xom ashyo (jun, teri, mo'yna) yetkazib beradi. Qo'y juni xalq xo'jaligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Qo'y junidan gazmol, trikotaj buyumlar, gilam va h.k., terisidan po'stin, mo'ynasidan turli kiyimkechaklar tikiladi, go'shti oqsil va yogga boy to'yimli mahsulot, sutidan pishloq, brinza va boshqa tayyorlanadi.

Qo'ychilik olinadigan mahsulotga qarab go'sht-yog', go'sht-jun va go'sht-jun-sut, ular o'z navbatida, mayin junli, yarim mayin junli, dag'al junli, yarim dag'al junli, mo'ynali, po'stin-bop yo'nalishlarga bo'linadi.[1]

Qo'ychilik O'rta Osiyo hududida sifatli go'sht va juni uchun yetishtiriladi. Qo'ychilik bilan shug'ullanish uchun keng yaylovlar kerak bo'ladi. Aynan shu maqsadda Orol hududini yaylovashtirish ishlari tashkil etildi. Umumiy hisobda qoraqalpog'iston hududida 3 million gektardan ortiqdir. Yaylovlarning katta qismi cho'l va yarim cho'l hududlarida va qolgan qismi o'tloqlarda joylashgan. Yaylovlarning keng va yaxshi rivojlanishi iqlim sharoitiga bog'liq. Qoraqalpog'iston hududi Arid iqlim zonasida joylashgan bo'lib, iqlimi quruq va yog'in kam. Shu bois cho'l zonalarida yaylovlar yantoq kabi o'simliklardan iboratdir. Ekologlar cho'llanish jarayonlarini kuchayishi, hamda yaylovlar degradatsiyasini Orol fojiasining salbiy oqibatlaridan biri ekanligini alohida ta'kidlamogda. Masalan, 1995—2014-yillar mobaynida Qoraqalpog'istondagi yaylovlar unumdorligi 23 foizga pasaygan, bu vaqtda esa yirik qoramol soni va zichligi anchagina oshgan.

Yuzaga kelgan vaziyatda eng maqbul yechim sifatida yaylovlarni samarali boshqarish bo'yicha amaliy mexanizmi yaratish taklif etilmoqda. Bunday yondashuv nafaqat degradatsiyaga uchragan yerlarni tiklaydi, balki ularning ozuqa salohiyatini ham oshiradi.[3]



Qoraqalpog'iston sharoitida dumbali qo'ylarning unumdorlik xususiyatlari

Aynan shu maqsadda dumbali qo'ylarni yetishtirish samarali qaror bo'ladi. Sababi dumbali qo'ylar go'sh sifatining yuqoriligi, tez o'sishi va kam yem talab qilishi bilan ajralib turadi. Bu qoraqalpog'iston sharoitiga moslashuvchan qo'ylardir. Ular uzoq masofaga haydashga chidamli. Dumbali qo'ylardan go'sht va dag'al jun olinadi. Yirik dumbali qo'ylardan hisori, saraja, edilbey qo'ylari mashhur. Qo'chqorlarning vazni 110 kg dan boshlab 130 yoki 180 kg gacha yetadi. Bu zotlar yaxshi go'sht beradi. Dumbali qo'ylar so'yilganda go'sht chiqishi 53—60%, jun bo'yicha mahsuldorligi past — 2,0—2,2 kg jun beradi. Juni dag'al va bir tekis bo'lmagani uchun dag'al movut, gilam, kiygiz va boshqa mahsulotlar tayyorlanadi. Dumbali qo'ylardan 120 kg gacha sut sog'ib olish mumkin. Serpushtligi 105— 120%. Eron, Afg'oniston, Arabiston yarim orol mamlakatlarida, Kavkaz, Rossiyaning janubi, O'rta Osiyo, Qozog'istonda ko'proq boqiladi.[4]



- Arid iqlim sharoitiga yuqori moslashuvchanligi.
- Mahalliy yaylovlar cheklangan bo'lishi mumkin va tashqi yemdan foydalanish muhim
- Dumbali qo'ylar go'shtiga talab yuqori bo'lganligi uchun yaxshi investutsiya chaqiradi va iqtisodiy foyda keltiradi

Qoraqalpog'istonda dumbali qo'ylarni yetishtirishda bir necha iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan muhim omillarni quida ko'rib chiqildi.

Dumbali qo'ylar yiliga 1 – 2 ta nasil beradi. Bu ko'rsatkich dumbali qo'ylarning genetik xususiyati va to'g'ri parvarishiga bog'liqdir. Sharoit yaxshi bo'lganda va yoz oylaridagi ko'payish mavsumida urg'ochi qo'ylar har 5 yoki 6 oyda bir bolalashi mumkin. Dumbali qo'ylar parvarishida innavatsiyalarni jalb qilish orqali nasildorlikni oshirishga erishiladi. Qoraqalpog'iston sharoitida bugungi kunda bir necha dumbali qo'y turlarini yetishtirilmoqa.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dumbali qo'ylar. https://uzpedia.uz/pedia/dumbali_qoylar_2
2. Qo'ychilik <https://uzpedia.uz/pedia/qoychilik>
3. Orolbo'yi hududidagi erlarda "Yaylovlar xaritasi" tuziladi <https://yuz.uz/uz/news/orolboyi-hududidagi-erlarda-yaylovlar-xaritasi-tuziladi>
4. Qoraqalpog'istonda yaylov chorvachiligini rivojlantirish bo'yicha seminarlar o'tkazilmoqda <https://daryo.uz/2018/08/26/qoraqalpog%25ca%25bbistonda-yaylov-chorvachiligini-rivojlantirish-boyicha-seminarlar-otkazilmoqda>